



NAVOIY SIYMOSI MANGU VA ABADIY SIYMODIR

*Denov tumani**Maktabgacha va maktab boshqarmasiga**qarashli 91- umumiy o'rta ta'limi maktabi**ona tili va adabiyoti o'qituvchisi***XO'JAYEVA XAYRINISO G'ULAMOVNA**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy asarlarining tarixiy ahamiyati va o'zbek adabiy tiliga qo'shilgan hissasi ko'rib chiqiladi. Asarlarning ko'p qirrali mazmuni va ularida ifodalangan fikrlar, shuningdek, siymo sifatidagi ahamiyati ta'kidlanadi. Navoiy, nafaqat o'z zamonining eng buyuk shoirlaridan biri, balki o'zbek ma'naviyatining asoschilaridan sifatida ham tan olinadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, o'zbek adabiyati, ma'naviyat, bebaho meros, asarlar, tarixiy ahamiyat, madaniyat, ma'naviy rivojlanish, adabiy til, siymo.

Abstract: This article examines the historical significance of Navoi's works and their contribution to the Uzbek literary language. The multifaceted content of the works and the ideas expressed in them, as well as their significance as a figure, are emphasized. Navoi is recognized not only as one of the greatest poets of his time, but also as one of the founders of Uzbek spirituality.

Keywords: Alisher Navoi, Uzbek literature, spirituality, invaluable heritage, works, historical significance, culture, spiritual development, literary language, figure.

Kirish

Alisher Navoiy, o'zbek adabiyotining buyuk siymosi, o'zining asarlari orqali milliy tilimizni boyitgan shoir va mutafakkirdir. Uning asarlari zamon o'tishi bilan yanada qadrlanmoqda va har biravlod uchun ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Insoniyatning xususiyatlaridan biri o'z ajdodlari, qadriyatlari, an'analari bilan faxrlanishdir. Alisher Navoiy esa bunday siymolarimizdan biridir. Uning ijodi hayratga to'la, asarlarini o'qigan inson ko'plab sirlarni topadi. "Muhokomat ul-lug'atayn"



asarida turkiy tilning boyligi ilmiy ravishda tasdiqlanadi. Navoiy tillar haqida mulohazalar yuritadi, arab tilining jozibadorligini ta'kidlaydi. U forsiy, turkiy va hindiy tillarini Nuh alayhissalomning o'g'illari bilan bog'lab, turkiy tilni ustun deb hisoblaydi. Navoiy turkiy tildagi so'zlar imkoniyatini tahlil qilib, ularning kengligini ko'rsatadi. U turkiy tilning nafosatini va tarixiy merosini e'tirof etadi. "Muhokomat ul-lug'atayn" asarini yakunlar ekan, o'z ishining ahamiyatini ta'kidlaydi. Alisher Navoiydir. Navoiy ijodi hayrat xazinasidir. Navoiy asarlarini mutolaa qilgan inson duru-javohirlar, siru-sinoatlar ummoniga g'arq bo'ladi. Buni turkiy (o'zbek) tilining nechog'li jilvakor va boy til ekanini ilmiy asoslab yaratgan "Muhokomat ul-lug'atayn" asarida ham yaqqol kuzatishimiz mumkin.

Hazrat Navoiy tillar haqida o'z fikr-mulohozalarini bayon etar ekan asarning avvalida arab tilining naqadar jozibador ekanini dunyodagi hech bir takallum ahli bu tilga da'vo qila olmasligi va buning boisi Allohning kalomi bo'lgan Qur'oni Karimning ushbu tilda nozil bo'lgani bilan bog'lagan. holda eng nuktadon fikrlarni asosli tarzda izohlab o'tganlar.

Bayt:

Ki to bo'lg'ay jahon bu gulshan mevador o'lsin,

Harimida bu bulbullarg'a bu gulgong bor o'lsun¹.

".... Mindin so'ngra uch nav' tildurkim asl va mo'tabardir" - deya Navoiy ushbu asarni yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad sari yuzlanadi. Bu uch til ya'ni forsiy, turkiy va hindiy tillarining kelib chiqishi Nuh alayhissalomning uch o'g'li tarixi bilan bog'lagan holda izohlaydilar. Dunyoni To'fon bosishi va bundan keying hayotning davom ertishida salmoqli hissa qo'shgan Nuh alayhissalom Odami soniy deb ulug'lanadi. Nuh o'g'illari Yofas (Abu Turk)ni Xito mulkiga yubordi, Som (Abulfurs)ni Eron va Turon mamlakatiga Voliy qildi, Xom (Abul-hindni) Hindistonga jo'natdi. Bu uch payg'ambarzodalarning avlodu ajdodlari yuqorida keltirilgan yurtlarda ko'payib, yashay boshladilar. Yofas, ya'ni Abu- turk boshqa qarindoshlari

¹ Sirojiddinov Sh. A. Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. 2011, 225-bet



orasida nisbatan ko‘proq e’tibor topdi. Xom Nuh alayhissalomga beadablik qilgani bois uning tili va eliga qarg‘ish o‘tdi... Navoiy bu uch til haqida o‘z fikr va mulohozalarini bayon etar ekan, aynan turkiy va forsiy tillarni o‘zaro qiyoslashni lozim topadi. Navoiy turk elini fahm- farosatli, aql- idrokli sof hilqatli, pokdomon deb e’tirof etadi. Navoiy turk (o‘zbek) tilining fors tilidan ustunligini dalillar bilan isbotlab beradi.

Bundan tashqari, turkey (o‘zbek) tilidagi 100 ta so‘zlarni forsiy til bilan yasab bo‘lmasligi haqida fikrlar keltirilgan. So‘zlarning ayrimlari bilan tanishib o‘tamiz: quruqshamoq, qizg‘anmoq, ko‘ndirmoq, sovrilmoq, chayqalmoq, burmak, turmak, o‘rtanmak, chidamoq, tuzmak, chimdilamoq, sipqarmoq, siylanmoq, tanlamoq, ingramoq... va bosahqalar.

... Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolag‘a mundin o‘tmas.turkcha nazmda bu matla’ bordurkim.

Bayt:

Soqiyo, tut bodakim , bir lahza o‘zumdin boray,

Shart bukim har necha tutsang labo-lab sipqoray².

Shu bilan bir qatorda Navoiy turk (o‘zbek) tilidagi omonim so‘zlar imkoniyatining nechog‘li keng ekani borasida to‘xtalib o‘tadi.

...ko‘k lafzin hamnecha ma’ni bilaiste’mol qilurlar. .Biri ko‘k osmonni derlar, yana ko‘k ohangdur.

Yana ko‘k tegrada ko‘klamakdur. Yana ko‘k qadog‘i ham derlar. Yana ko‘k sabza va o‘lanni dag‘i derlar...

Navoiy tilimizning naqadar nafis, serjilo, diltortar va betimsol ekani Xuloguxon (Chingizxonning nevarasi 1285-yil), Sohibqiron Amir Temur, uning o‘g‘li Shohrux Mirzo davrida turkiygo‘y shoirlarning qoldirgan katta adabiy meroslaridan namoyon bo‘lgani haqida o‘z mulohazalarini bildirib o‘tadi. Navoiy “Muhokomat ul-lug‘atayn” asarini xotimalar ekan quyidagi jumlar bilan yakun yasaydi:

² Sirojiddinov Sh. A. Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. 2011, 225-bet



“... Agar dag‘i ranju mashaqqatim muqobalasida, chun bu maxfiy ilmdinki, zohir qilibmen , vuquf topsalar, umid ulkim bu faqirni xayr duosi bila yod qilg‘aylar va ruhimni aning bila shod qilg‘aylar³”.

Ruboiy:

Bu nomaki, yozdi qalamim tortib til,
Ta’rixin aning jumodiul-avval bil,
Kunning raqamini chorshanba qilg‘il,
To‘qqiz yuz yildin o‘tib berdi besh yil⁴.

Darhaqiqat asar yozilganiga 524 yil bo‘libdi. Hazratning o‘zlari e’tirof etganlaridek, o‘zbek adabiy tili bor ekan Alisher Navoiy nomi barhayotdir. Biz shunday umrboqiy siymolarimizning bebaho merosini o‘qib, o‘rganib, ma’naviyatimizni boyitishimiz lozim.

Xulosa

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi bo‘lib, uning asarlari asrlar davomida ma'naviy va madaniy meros sifatida qadr topmoqda. U og'zaki va yozma adabiyotda qalam tebratib, muhim tarixiy va falsafiy g'oyalarni o‘z asarlarida ifodaladi. Navoiy nafaqat shoir, balki muallif sifatida ham madaniyatga ulkan hissa qo‘shgan. Uning asarlari zamonaviy o‘zbek adabiyotining poydevorini shakllantirgan. Ma'naviy rivojlanish va adabiy tilni rivojlantirishda O‘zbekiston tarixida muhim rol o‘ynagan. Alisher Navoiy merosi nafaqat o‘zbek xalqiga, balki global madaniyatga ijobiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzoyeva A. ., Foni va Hofiz”. 1968, 64-bet.
3. Sirojiddinov Sh. A. Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. 2011, 225-bet
4. Mirzoyev A. M. ., Kamal ad-din” 1976.33-34-bet.

³ Mirzoyev A. M. ., Kamal ad-din” 1976.33-34-bet.

⁴ Sirojiddinov Sh. A. Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. 2011, 225-bet



5. Y. Is'hoqov. „Xamsa” poetikasiga doir.
6. Abdurasul Eshonboboyev. „Sharq yulduzi” jurnali, 2016-9
7. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. T: G'afurG'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
8. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. T: Fan,1993